



_____ hokimligi
maktabgacha va maktab ta'limi
boshqarmasi

_____ maktabgacha va
maktab ta'limi bo'limi tasarrufidagi
___-umumiy o'rta ta'lim maktabi
ona tili va adabiyot fani o'qutuvchisi
_____ning

20__ - 20__ - o'quv yiliga 6 – sinf
adabiyot fanidan III chorak uchun

DARS
ISHLANMALARI

“TASDIQLAYMAN”
O‘IBDO‘ _____

**20__-20__-o‘quv yili uchun tuzilgan 6-sinf adabiyot fanidan III chorak
taqvimiy mavzu rejasi**

№	Mavzu nomi	Soat	Sana	Izoh
I chorak				
1.	Hojiakbar Shayxov: «Birinchi sinov» hikoyasi: Muallif hayoti va ijodi. Ilmiy fantastika haqida tushuncha. “Asarni o‘qishga tayyorlanamiz” bosqichi topshiriqlari bilan ishlash	1		
2.	Hojiakbar Shayxov: «Birinchi sinov» hikoyasi: Asar matni bilan ishlash	1		
3.	Hojiakbar Shayxov: «Birinchi sinov» hikoyasi: “Muhokama qilamiz” bosqichi topshiriqlari bilan ishlash	1		
4.	Hojiakbar Shayxov: «Birinchi sinov» hikoyasi: Loyiha	1		
5.	Rey Bredberi: «Bir kunlik yoz» hikoyasi. Muallif hayoti va ijodi. “Asarni o‘qishga tayyorlan- amiz” bosqichi topshiriqlari bilan ishlash	1		
6.	Rey Bredberi: «Bir kunlik yoz» hikoyasi: Asar matni bilan ishlash	1		
7.	Rey Bredberi: «Bir kunlik yoz» hikoyasi. “Muhokama qilamiz” bosqichi topshiriqlari bilan ishlash	1		
8.	Rey Bredberi: “Bir kunlik yoz” hikoyasi. Sifatlash. Loyiha	1		
9.	Jyul Vern: «O‘n besh yoshli kapitan» romanidan parchalar: Muallif hayoti va ijodi. Sarguzasht asar haqida tushuncha. “Asarni o‘qishga tayyorlanamiz” bosqichi topshiriqlari bilan ishlash	1		
10.	Jyul Vern: “O‘n besh yoshli kapitan” romanidan parchalar: “Dik Send” bobi. Portret	1		
11.	Jyul Vern: «O‘n besh yoshli kapitan» romanidan parchalar: «Kapitan Send» bobi.	1		
12.	Jyul Vern: «O‘n besh yoshli kapitan» romanidan parchalar: «Nima qilish kerak» bobi	1		
13.	BSB-3. Loyiha ishi. Asar qahramoniga maktub yozish (50 ball)	1		
14.	Artur Konan Doyle: «Mallalar uyushmasi» hikoyasi: Muallif hayoti va ijodi. Detektiv haqida tushuncha. “Asarni o‘qishga tayyorlanamiz” bosqichi topshiriqlari bilan ishlash	1		
15.	Artur Konan Doyle: «Mallalar uyushmasi» hikoyasi: Asar matni bilan ishlash (1-qism)	1		
16.	Artur Konan Doyle: «Mallalar uyushmasi» hikoyasi: Asar matni bilan ishlash (2-qism)	1		
17.	Artur Konan Doyle: «Mallalar uyushmasi» hikoyasi: “Muhokama qilamiz” bosqichi topshiriqlari bilan ishlash	1		
18.	Fanlararo aloqa: Adabiyot va texnologiya	1		
19.	CHSB-3 (40 ball)	1		
20.	Takrorlash. Xatolar ustida ishlash. Mustaqil o‘qilgan asarlar muhokamasi	1		

Sana:				
Sinf:				

Mavzu: Hojiakbar Shayxov: «Birinchii sinov» hikoyasi: Muallif hayoti va ijodi. Ilmiy fantastika haqida tushuncha. “Asarni o‘qishga tayyorlanamiz” bosqichi topshiriqlari bilan ishlash

Darsning maqsadi:

Ta’limiy: o‘quvchilarga asarni o‘qish davomida obrazlarga xos xususiyatlarni tahlil qilish orqali ularning badiiy asar g‘oyasini (yoki g‘oyalarini) ochib berishdagi, voqealar rivojida o‘rni topish, obrazlarga berilgan tavsiflarga (masalan, ularning tashqi qiyofasi, kiyinishi, nutqi – gap-so‘zlari, xatti-harakatlariga) e’tibor berish, o‘quvchilarda mavzu bo‘yicha bilim, malaka va ko‘nikmalarni hosil qilish.

Tarbiyaviy: o‘quvchilarga vatanparvarlik, insonparvarlik, mehr-oqibat, yaxshilik, kamtarlik tuyg‘ularini singdirish, ona Vatanimizga va ota-onasiga cheksiz mehr-muhabbat ruhida tarbiyalash.

Rivojlantiruvchi: o‘quvchilarning ilmiy dunyoqarashini, tafakkurini, asarlarni tahlil qilish hamda ifodali o‘qish malakalarini rivojlantirish, erkin fikrlashga, muammoli vaziyatlar yechimini topishga o‘rgatish, mavzu asosidagi bilim, ko‘nikmalarini boyitish..

O‘quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiya elementlari:

O‘zini o‘zi rivojlantirish kompetensiyasi:

doimiy ravishda o‘z-o‘zini ma’naviy rivojlantirish, mustaqil o‘qib-o‘rganish.

Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:

oilada, maktabda bo‘layotgan tadbirlarda faol ishtirok etish, barcha bilan xushmuomalada bo‘lish.

Darsning metodi: og‘zaki (suhbat, savol-javob)

Darsning vositalari: dars rejasi, mavzuga oid rasmlar, tarqatmalar, texnik vositalar.

Shakl: jamoa, guruhda ishlash, hamma o‘zi uchun.

Nazorat: o‘quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

Baholash: o‘quvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxirida e’lon qilinadi.

Darsning borishi:

№	Bo‘limlar	Vaqt
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O‘tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O‘quvchilarni rag‘batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

I. Tashkiliy qism: a) Salomlashish. b) Davomatni aniqlash.

II. Uyga vazifani so‘rash: a) Savol – javob o‘tqazish. b) Topshiriqlarni tekshirish.

III. Yangi mavzu bayoni:

Hojiakbar Shayxov (1945–2002) – o‘zbek adabiyotida ilmiy fantastika asoschilaridan biri. Toshkent politexnika institutini bitirgan. Asl kasbi – energetik. Bir necha ilmiy-fantastik asarlar yaratgan. Asarlari xorijiy davlatlarda ham chop etilgan. AQSHda nashr etilgan jahonning eng yetuk fantast yozuvchilari haqidagi adabiy ensiklopediyaga uning nomi ham kiritilgan. Koinotdagi yoki olis sayyoralardagi sarguzashtlar, kelajakka yoki o‘tmishga

sayohat qilish, o'zga sayyoraliklar bilan uchrashish haqidagi kitoblarni o'qiganmisiz, badiiy filmlar yoki multfilmlarni tomosha qilganmisiz? Bunday asarlar ilmiy-fantastik asarlar deb ataladi. "Fantastika" so'zi yunoncha bo'lib, "tasavvur qilish san'ati" ma'nosini anglatadi. Ilmiy-fantastik asarlarda yozuvchi qahramonlarni noodatiy makon va vaziyatlarda (masalan, o'zga sayyorada yoki olis kelajakda) tasavvur qiladi. Bunday vaziyatlar orqali insonlar o'rtasidagi munosabatlar, yaxshilik va yomonlik, burch, adolat singari masalalar talqin qilinadi. Ilmiy-fantastik asarlarda qahramonlar ilm-fandagi yangiliklar, yutuqlar, ixtirolardan foydalanishadi. Bunday asarlarda mualliflar fanning turli sohalariga oid ilmiy so'zlarni ko'p ishlatishadi, hatto hali ixtiro qilinmagan narsa-buyumlar uchun ham yangi so'zlar o'ylab topishadi. Hozirda oddiy narsalarga aylangan televideniye, uyali telefon, suvosti kemasi yoki koinotga uchadigan raketa kabilar hali ixtiro qilinmasidan ancha oldin ilmiy-fantastik asarlarda tasvirlangan.



Mashhur ingliz yozuvchisi Herbert Uellsning "Dunyolar jangi" ilmiy-fantastik romanida Yerga marsliklar hujum qilishadi.



Rus yozuvchisi Yevgeniy Veltistovning "Elektronik – chamadondan chiqqan bola" asarida robot insonga aylanishni xohlaydi.

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash

Qanday ilmiy-fantastik asarlarni o'qigansiz, badiiy filmlarni tomosha qilgansiz? Ularda qanday ilmiy ixtirolar tasvirlangan?

V. Darsni yakunlash: o'quvchilarni yutuq va kamchiliklarini muhokama qilish, rag'batlantirish.

VI. Uyga vazifani e'lon qilish: yangi mavzuni to'liq takrorlash va yangi mavzu yuzasidan bilimlarini mustahkamlab kelish.

O'IBDO': _____ (imzo) _____ (sana)

Sana:				
Sinf:				

Mavzu: Hojiakbar Shayxov: «Birinchi sinov» hikoyasi: Asar matni bilan ishlash
Darsning maqsadi:

Ta’limiy: o‘quvchilarga asarni o‘qish davomida obrazlarga xos xususiyatlarni tahlil qilish orqali ularning badiiy asar g‘oyasini (yoki g‘oyalarini) ochib berishdagi, voqealar rivojidadagi o‘rnini topish, obrazlarga berilgan tavsiflarga (masalan, ularning tashqi qiyofasi, kiyinishi, nutqi – gap-so‘zlari, xatti-harakatlariga) e’tibor berish, o‘quvchilarda mavzu bo‘yicha bilim, malaka va ko‘nikmalarni hosil qilish.

Tarbiyaviy: o‘quvchilarga vatanparvarlik, insonparvarlik, mehr-oqibat, yaxshilik, kamtarlik tuyg‘ularini singdirish, ona Vatanimizga va ota-onasiga cheksiz mehr-muhabbat ruhida tarbiyalash.

Rivojlantiruvchi: o‘quvchilarning ilmiy dunyoqarashini, tafakkurini, asarlarni tahlil qilish hamda ifodali o‘qish malakalarini rivojlantirish, erkin fikrlashga, muammoli vaziyatlar yechimini topishga o‘rgatish, mavzu asosidagi bilim, ko‘nikmalarini boyitish..

O‘quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiya elementlari:

Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi:

mediamanba va kutubxonalaridan zarur ma’lumotlarni topa olish va ulardan foydalanish.

O‘zini o‘zi rivojlantirish kompetensiyasi:

doimiy ravishda o‘z-o‘zini ma’naviy rivojlantirish, mustaqil o‘qib-o‘rganish.

Darsning metodi: og‘zaki (suhbat, savol-javob)

Darsning vositalari: dars rejasi, mavzuga oid rasmlar, tarqatmalar, texnik vositalar.

Shakl: jamoa, guruhda ishlash, hamma o‘zi uchun.

Nazorat: o‘quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

Baholash: o‘quvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxirida e’lon qilinadi.

Darsning borishi:

№	Bo‘limlar	Vaqt
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O‘tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O‘quvchilarni rag‘batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

I. Tashkiliy qism: a) Salomlashish. b) Davomatni aniqlash.

II. Uyga vazifani so‘rash: a) Savol – javob o‘tqazish. b) Topshiriqlarni tekshirish.

III. Yangi mavzu bayoni:

BIRINCHI SINOV

Biz hikoya qilmoqchi bo‘lgan bu voqea uzoq kelajakda sodir bo‘lgan. Iye, kelajakda bo‘lsa, hali sodir bo‘lmabdi-da, deb so‘rarsiz. Yo‘q, biz chindan ham kelajakda bo‘lib o‘tgan voqealar haqida hikoya qilmoqchimiz. Negaki ko‘pchilik ilmiy-fantastik asarlarda kelajakdagi voqealar xuddi o‘tmishda bo‘lib o‘tgandek tasvirlanaveradi. Shunday qilib, 2279-yilning erta bahor kunlaridan birida Yerdan Qora Kit burjiga “Kamalak” kosmik kemasi yo‘l oldi. Kema ekipaji bor-yo‘g‘i ikki kishi – u paytda hali dunyoga kelmagan hikoyamiz qahramoni jajji Shahnozaning otasi va onasidan iborat va ularning har ikkovi endi o‘ttiz yoshga qadam qo‘yishgandi. Ular ko‘zlagan manzil olis, binobarin safar ham

uzoqqa cho‘zilishi mo‘ljallangan. Bu davrda fazogirlar yo‘lda farzand ko‘rishlari, ularni o‘qitib, tarbiya qilishlari va keyinchalik kemani boshqarishni ularga topshirishlari lozim edi. Hali Quyosh sistemasidan chiqmay turiboq, fazogirlar farzand ko‘rishdi. Qizchaga Shahnoza deb nom qo‘yishdi. Butun bolalik va yoshligi fazoda o‘tishi aniq bo‘lgan bu qizaloq juda tez o‘sa boshladi. U yarim yoshdayoq yurishni, bir yoshida bemalol gaplashishni o‘rgandi. Ikki yoshida esa, hatto mayda-chuyda ishlarda ota-onasiga yordam beradigan ham bo‘ldi. Birga o‘ynaydigan o‘rtoqlari bo‘lmasa ham, u zerikmasdi. Ertalab turib dadasi va onasi bilan birga badantarbiya qilar, nonushtadan so‘ng zalga qo‘yilgan zangori akvariumdagi tilla rangli baliqlarni qotgan non ushoqlari bilan boqar, tuvaklardagi ra‘nogul, na‘matak, tizimgul, sebarga, lolaqizg‘aldoq kabi rang-barang gullarga o‘zining idishidan suv quyardi. Bu ishlari bitgach, onasi bilan birga alifbeni o‘rganishga kirishardi. Otasi yordamida hisob ilmini o‘rganishga kirishganida esa butunlay jonlanib ketar, jajji barmoqlarini galma-gal bukib, otasining g‘alati savollari ustida rosa bosh qotirardi.

Dam olish paytlarida onasi olisda qolgan zangori sayyora – ona Yer haqida hikoya boshlar, u yerda juda ko‘p odamlar xuddi ulardek oila-oila bo‘lib yashashlari, Shahnozaga o‘xshagan juda ko‘p qizchalar va o‘g‘il bolalar borligi haqida gapirib berardi. Shahnozani dunyodagi hamma narsa qiziqtirar, u hadeb savol yog‘diraverardi. Keyin otasi unga Yerdagi hayotni ko‘rsatuvchi kinofilmlarni qo‘yib berardi. Shu zaylda kunlar o‘taverdi. Bir kuni qiz otasidan: – Yerdadamlar juda ko‘p ekan, nima uchun biz juda ozchilikmiz?

– deb so‘rab qoldi.

– Bilasanmi, qizim, – picha o‘ylanib turib javob berdi otasi, – bizning maqsadimiz Qora Kit burjiga yetib borib, inson yashay olishi mumkin bo‘lgan biror sayyorani izlab topish. Bu esa ancha xatarli vazifa. Uni bajarishga shu maqsad uchun o‘z hayotlarini ham qurbon qilishga tayyor fidoyi insonlarga qodir. Bundaylarni qadimgi zamonda birinchilar deb atashgan. Birinchilar tarixda hech qachon ko‘pchilikni tashkil qilmagan. Masalan, fazoga ilk marta Gagarin, Titov singari fazogirlar bitta-bitta bo‘lib uchishgan. Quyosh burji sayyoralari o‘zlashtirilayotganda ham bu ishga ikki-uch nafardan ortiq fazogir jalb etilmagan. Sababi – ilgari sira ko‘rilmagan, insonga hali tilsimot bo‘lib tuyulgan narsalar aksari ana shu bilmaslik tufayli odamni halokatga duchor qilishi mumkin. Ana shu halokatga uchrash ehtimoli bo‘lgan odamlar soni iloji boricha kam bo‘lishi uchun birinchilar doimo ozchilikni tashkil qilishadi.

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash

1.Koinotda, kosmik kemada yashashni siz qanday tasavvur qilasiz?

2.Nima deb o‘ylaysiz, Shahnozaning ota-onasiga bunday savol berishi to‘g‘rimi?

V. Darsni yakunlash: o‘quvchilarni yutuq va kamchiliklarini muhokama qilish, rag‘batlantirish.

VI. Uyga vazifani e‘lon qilish: yangi mavzuni to‘liq takrorlash va yangi mavzu yuzasidan bilimlarini mustahkamlab kelish.

O‘IBDO‘: _____
(imzo) (sana)

veb-saytimiz: Zokirjon.com
Zokirjon.com. veb-sayiti orqali o‘zingiz uchun
kerakli hujjatlarni yuklab olishingiz mumkin.

Zokirjon Admin bilan

90-530-68-66, 91-397-77-37 nomerga murojaat
qilishingiz, shu nomerdagi telegram orqali
bog‘lanishingiz nza456 yoki nza445 izlab
telegramdan yozishingiz so‘raladi.
Telegramda murojaatingizga o‘z vaqtida javob
beriladi

40 listdan iborat adabiyot fanidan 6-sinf
III chorak konspektini to‘loq holda olish uchun
telegramdan yozing.




Telegram kanalimiz:

@Maktablar_uchun_hujjatlar

To‘lov uchun: UZCARD *880*9860230104973329*summa#

Plastik egasi Nabiyev Zokirjon



DIQQAT!!!

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.
To‘liq holda olganingizdan so‘ng:
Faqat o‘zingiz uchun foydalaning.
Hech kimga bermang hattoki eng
yaqin insoningizga ham.
Internet orqali veb-saytlarga
joylamang.
Kanal va gruppalariga tarqatmang.

OMONATGA

HIYONAT QILMANG.

***Bizni hizmatdan foydalanib qulay imkoniyatga ega bo‘ling!
Bizda maktablar uchun quydagi hujjatlar mavjud.***

- 1. 1-11-Sinflar uchun kelajak soati ish reja va konspektlari**
- 2. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan to‘garak hujjatlari**
- 3. Sinf rahbar hujjatlari**
- 4. Metodbirlashma hujjatlari**
- 5. Ustama hujjatlari**
- 6. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan konspektlar va tezislar**
- 7. 1-11-Sinflar uchun Ish rejalar (Taqqim mavzu rejalar)**
- 8. Maktab ish hujjatlari**
- 9. Direktor ish hujjatlari**
- 10. MMIBDO‘ ish hujjatlari**
- 11.O‘IBDO‘ ish hujjatlari**
- 12.Psixolog hujjatlari**
- 13.Xotin-qizlar qo‘mitasi ish hujjatlari**
- 14.Kutubxona mudirasi ish hujjatlari**
- 15.Besh tashabbus hujjatlari**
- 16. Ommalashtirish uchun dars ishlanmalar va ochiq dars ishlanmalar, taqdimotlar, slaydlar**